

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI

Seytimbetova Nargiza Mynsyzbayevna

Kenesbayeva Miyrimpatsha Baxadir qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, dotsent.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, talaba.

e-mail: seytimbetovanargiza@umail.uz **ORCID:** <https://orcid.org/0000-0003-4133-0914>

e-mail: kenesbaevamiyrimpatsha2004@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0003-7020-2177>

Annotatsiya.

Maqolada Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilik hamda institutsional mexanizmlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Shuningdek, Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mita hamda milliy madaniy markazlarning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi roli tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, huquqiy mexanizm, bag'rikenglik, Konstitutsiya, milliy madaniy markazlar, do'stlik aloqalari, ijtimoiy barqarorlik, inson huquqlari.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Сейтимбетова Наргиза Мынсызбаевна

Кенесбаева Мийримпатша Бахадыр кизи

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, доцент.

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, студент.

Аннотация.

В статье анализируются организационно-правовые основы обеспечения межнационального согласия в Новом Узбекистане. Автор раскрывает особенности национального законодательства и институциональных механизмов, направленных на защиту прав и свобод представителей различных национальностей, проживающих в стране. Особое внимание уделено роли Комитета по межнациональным отношениям и вопросам соотечественников за рубежом, а также национальных культурных центров в обеспечении общественной стабильности и укреплении межнационального согласия.

Ключевые слова: межнациональное согласие, правовой механизм, толерантность, Конституция, национальные культурные центры, дружественные связи, социальная стабильность, права человека.

ORGANIZATIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING INTERETHNIC HARMONY IN NEW UZBEKISTAN

Seytimbetova Nargiza Mynsyzbayevna

Kenesbayeva Miyrimpatsha Baxadir qizi

Berdakh Karakalpak State University, Associate Professor.

Berdakh Karakalpak State University, Student.

Abstract.

This article analyzes the organizational and legal foundations for ensuring interethnic harmony in New Uzbekistan. The author examines the specific features of the national legislation and institutional mechanisms aimed at protecting the rights and freedoms of representatives of various ethnic groups living in the country. Particular attention is paid to the role of the Committee on Interethnic Relations and Compatriots Abroad, as well as national cultural centers, in maintaining social stability and strengthening interethnic harmony.

Keywords: interethnic harmony, legal mechanism, tolerance, Constitution, national cultural centers, friendly relations, social stability, human rights.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida millatlararo munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini, uning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadqiq etish hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish O'zbekiston tarixini tadqiq etishning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Etnik munosabatlar har qanday ko'p millatli, polietnik jamiyatning, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Etnik siyosat keng ma'noda ko'p millatli, polietnik davlat siyosatining ajralmas qismi va o'ziga xos jihatidir. U umumiy siyosiy jarayonning tarkibiy qismi bo'lib, ma'lum darajada mustaqillikka ega. Shu sababli u ijtimoiy va milliy taraqqiyot jarayonlarini jadallashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. Tor ma'noda esa etnik siyosat – hukumat tuzilmalari, siyosiy partiyalar hamda ko'p millatli (polietnik) davlatlardagi ijtimoiy harakatlarning milliy masalalarga doir strategik yo'nalishi bo'lib, u qonun hujjatlari, maxsus dasturlar va boshqa tegishli hujjatlarda mustahkamlangan [1, 191].

Qaysi mamlakatda milliy siyosat va millatlararo munosabatlar oqilona yo'lga qo'yilib, mamlakatning barqaror taraqqiyoti hamda millatlararo totuvlik ta'minlangan bo'lsa, o'sha mamlakatda ko'p millatlilik xususiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Millatlararo totuvlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanib, muayyan hudud yoki davlatda turli millat vakillarining hamjihat yashashi va hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalaydi [2].

Tadqiqot metodi. Maqola tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish hamda xolislik tamoyillariga asoslangan tarixiy metodlar asosida yoritilgan. Unda mustaqillik yillarida mazkur muammo bo'yicha e'lon qilingan ilmiy maqolalar, kitoblar, matbuot materiallari, shuningdek, ushbu sohaga oid idoralarning ma'lumotlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari. Hozirgi kunda geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar avj olgan globallashuv davrida, shuningdek, jahonda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchaygan bir sharoitda millatlararo totuvlikni ta'minlash har bir davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, bu yurtimizdagi tinch-osuda hayot, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning garovi bo'lib kelmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida: «O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» [3], 19-moddasida esa: «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar» [4], deb belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasining «**Davlat tili haqida**»gi Qonunida til millatning katta boyligi va bebaho mulki ekanligi ta'kidlanib, uning 4-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi», deb belgilangan [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev boshchiligidagi millatlararo munosabatlar sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar yanada mustahkamlanib, keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan **«Harakatlar strategiyasi»**ning beshinchi yo'nalishi sifatida «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat sohasidagi asosiy yo'nalishlar» belgilandi [6, 210]. Unda millatlararo totuvlikni ta'minlash eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilib, mazkur vazifalarni amalga oshirish yuzasidan amaliy ishlar olib borildi.

2017-yil 24-yanvarda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev millatlararo munosabatlar sohasidagi dolzarb vazifalar haqida to'xtalib, jumladan: «Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda mamlakatda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etish Respublika Baynalmilal madaniyat markazining yana bir dolzarb vazifasi, deb hisoblayman», deb ta'kidlagan [7, 300].

2019-yil 15-noyabrda **«Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»**gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonining qabul qilinishi ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Farmonda millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, mazkur sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi, shuningdek, 2019–2021-yillarda ushbu konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha **«Yo'l xaritasi»** tasdiqlandi. Mazkur Farmon ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tizimlashtirish, hududlarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlar hamda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini chuqur tahlil qilish asosida, **«Inson qadri uchun»** tamoyiliga muvofiq xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquq va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish maqsadida 2022-yil 28-yanvarda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida **«Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari»** tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. U quyidagi yetti ustuvor yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umuminsoniy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish [8].

Taraqqiyot strategiyasining 5-yo'nalishi **«Ma'naviy yuksalishni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish»** deb nomlanib, mazkur yo'nalishning 74-maqsadi jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga bag'ishlangan. Unga ko'ra quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;
- Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining izchil amalga oshirilishini ta'minlash;
- turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik va bag'rikenglikka asoslangan millatlararo munosabatlar madaniyatini yuksaltirish;
- xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan hamda millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish;
- xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallashib, O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ymoqda. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ilmiy muhit esa tobora murakkab hamda ko'p qirrali tus olmoqda. Shu nuqtayi nazardan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasining qabul qilinishi va unda ilgari surilgan **«inson – jamiyat – davlat»** tamoyili asosidagi islohotlar falsafasi avvalgi islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Strategiyaning 100-maqsadi jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishga bag'ishlangani millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasida mamlakat hududida yashovchi turli millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odatlar hamda an'alarini asrash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, mamlakatimizda xorijiy tillarda faoliyat yuritayotgan va millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Ayni paytda «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida «Do'stlik uylari» tashkil etilib, hududlarda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning xodimlarining jamoat loyihalarini tayyorlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil 19-martda «Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident Farmonining qabul qilinishi mazkur sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi [9].

Farmonga ko'ra, jamiyatda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashning ustuvor vazifalaridan biri sifatida millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlash orqali yagona fuqaroviy o'zlikni shakllantirish belgilandi. Mazkur Farmon asosida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi negizida O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Ushbu qo'mita millatlararo munosabatlar hamda xorijdagi vatandoshlar masalalari sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Har yili «O'zbekiston – yagona Vatan!» shiori ostida yurtimizdagi barcha millat va elat vakillarining o'zaro tengligi, birdamligi hamda ularning Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini e'tirof etishga bag'ishlangan anjuman tashkil etiladi. Shuningdek, Qo'mita «Vatandoshlar» jamoat fondi bilan hamkorlikda har yili xorijdagi vatandoshlarning «Uz Global Think» forumini tashkil etadi.

Tadqiqot tahlili. Ushbu tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida mamlakatni isloh qilish va modernizatsiya qilish, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash, davlat chegaralari daxlsizligini mustahkamlash, shuningdek, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Shu bois respublikamizdagi ta'lim muassasalarida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalalariga bag'ishlangan uchrashuvlar sonini ko'paytirish, o'quv dasturlarida mazkur mavzularga alohida e'tibor qaratish hamda darslik va o'quv qo'llanmalarida tarixiy manbalarga tayangan holda maxsus mavzular ajratish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqining mehr-oqibat, muruvvat va boshqa yuksak insoniy fazilatlarini darsliklarda keng yoritilsa, kelajakda xalqlar do'stligi g'oyalari yanada chuqur ildiz otib, yosh avlod taraqqiyotining muhim tayanchiga aylanishi mumkin.

Ko'p millatli respublika fuqarolari o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlikning saqlanib kelayotgani mamlakatimizning eng katta yutuqlaridan biridir. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi milliy masalalarni oqilona va qonuniy yo'l bilan hal etishga, millatlararo nizolarning oldini olish choralari izchil amalga oshirib kelmoqda. Bu borada davlat, avvalo, Konstitutsiyada belgilangan prinsiplar asosida faoliyat yuritdi. Natijada aholining barcha qatlamlari, jumladan, turli millat vakillari uchun yagona huquqiy makon yaratildi. Bosqichma-bosqich har bir fuqaro

qalbida yagona zamin, yagona makon va yagona Vatan tushunchalari shakllantirilib, faol fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirishga erishildi.

Xulosa. Millatlararo totuvlik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lib, mamlakatda, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning manfaatlari qonuniy asosda kafolatlangan. Bugungi kunda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatining izchil amalga oshirilishi natijasida har bir millat vakilining o'z ona tilida ta'lim olishi, o'z salohiyati va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Shu bois yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari yagona Vatan ravnaqi va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbekistonning eng yangi tarixi: darslik* / M. A. Rahimov tahriri ostida. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B. 190–191.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. – URL: <https://dba.uz/wp-content/uploads/2020/02/1.-01-02-2020.pdf>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145>
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145>
5. O'zbekiston Respublikasining **“Davlat tili haqida”gi Qonuni**. – URL: <https://lex.uz/acts/121051>
6. *2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola*. – Toshkent, 2017. – 210 b.
7. Mirziyoyev Sh. *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz*. – Toshkent, 2017. – 300 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjati. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy hujjati. – URL: <https://lex.uz/docs/7438950>